



RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA BO‘LAJAK IQTISODCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

“Informatika” kafedrası o‘qituvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti

rajabovasliddin254@gmail.com, ORCID ID: 0009-0001-0617-4859

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13364918>

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida “Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalari va tizimlari” fani o‘qituvchilariga, iqtisod yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalariga qo‘yilayotgan talablar, ularni hal qilishga qaratilgan yechimlar masalasi talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: globallashtirish, jamiyatni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, aqlli shaxar, aqlli uy, iqtisodiyotda axborot texnologiyalari, taqdimot, reklama..

1 KIRISH

Jamiyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarini qo‘llash shu soha rivojining asosiy ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Jumladan jamiyat qaddini tik tutib turadigan tanasi, asosi xisoblangan iqtisodiyot sohasida axborot texnologiyalarining qo‘llanishi soha rivojida asosiy o‘ringa chiqdi.

«Raqamlashtirish» so‘zi aslida yangi atama bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o‘laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta‘siri qanchalik ortib borayotganligini baholash jarayonida ko‘rish mumkinki, bo‘ljak iqtisodchi talabalarga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib boradi. Sababi raqamlashtirish jarayonini bevosita iqtisodchilar va IT sohasi vakillari amalga oshiradi.

2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e‘lon qilingandi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko‘tarilib, prezident farmoni bilan mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Bu strategiya doirasida raqamli ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalardan bilish mumkinki raqamlashtirish jarayoni bevosita ta‘lim tizimiga ham kirib kelyapti.

2 ADABIYOTLAR TAXLILI

- 1.01.2021 yildan boshlab fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma‘lumotlar bazasi va «bulutli» platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va boshqa talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 50%gacha bo‘lgan qismini qoplash tizimi joriy etiladi;

- 1.01.2021 yilga har bir tuman va shaharda mavjud infratuzilma ob‘yektlari negizida keng aholi qatlamlari, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari ochiladi;

- 2023 yil yakuniga qadar barcha tuman va shaharlarda o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o‘rganishi uchun mavjud ta‘lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi¹

3 NATIJALAR

Raqamlashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallamagan mutaxassis bilan mehnat faoliyatini boshlagan soha jamiyat rivojidan ortda qoladi.

Raqamlashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirmagan mutaxassis jamiyatda o‘z o‘rnini topib ketishida muammolarga uchraydi.

Mehnat bozori raqobatlariga dosh bera olmaydi. Natijada ishsiz qolish ehtimoli oshadi.

4 MUXOKAMA

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta‘lim jarayonadi raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullari joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

1. Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali mutaxassis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkilotish;

2. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining

1

https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda yangi/raqamli_uzbekiston-2030_strategiyasi_qabul_qilindi

mustaxkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

3. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, webinar, onlayn, "Blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;


Bunda an'anaviy ta'lim va masofaviy ta'lim birlashtiriladi. Talabalarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab, ular ta'lim turlaridan foydalanishlari mumkin.

Blended Learning

combining the best teaching methods



"Flipped classroom" texnologiyasida o'qituvchi barcha ma'lumotlarni platformaga joylashtiradi. Talabalar uyda darslar haqida ma'lumot bilan tayyorlanmoqdalar. Dars davomida ma'ruzalar yo'q, talabalar uyda o'rganadilar va amaliy mashg'ulotlar yordamida amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.



4. Zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish; Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish: Zoom, Microsoft Teams, freeconference videokonferentsiya dasturlari xizmatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni iqtisodiyot sohasi mutaxassislarini tayyorlaydigan ta'lim muassasalari oldiga quyidagi masalalarni qo'yadi:

- Ta'lim jarayonini to'liq axborot texnologiyalari bilan ta'minlash. Amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlari uchun maxsus laboratoriya xonalari, trinajyorlar yaratish.

- Ta'lim jarayoniga malakali, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan professor o'qituvchilarni jalb qilish. Bunda maxsus programmalar bilan ishlaydigan tor doiradagi mutaxassislarni jalb qilish

- Zamonaviy ta'lim metodlaridan va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Bunda berilgan mavzudan kelib chiqib har bir mavzuga o'zgacha yondashish va metodlardan foydalanish

- Sohalarda qo'llaniladigan maxsus dasturiy ta'minotni o'zlashtirishga imkoniyat yaratish va amalga oshirish.

✓ **MICROSOFT EXCEL**- Microsoft Office dasturiy ta'minot to'plamining bir qismi bo'lgan universal dastur. Ma'lumotni saqlash, tartibga solish va tahlil qilish qobiliyatiga ega tengsiz elektron jadval dasturi. Moslashuvchan va ishlatish uchun qulay.



✓ **1C: БУХГАЛТЕРИЯ** - bu buxgalteriya hisobini butunlay yangi bosqichga olib chiqqan eng mashhur buxgalteriya dasturi. Unga ulangan xizmatlar buxgalteriya vazifalarini samarali bajaradi. Ushbu dasturning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobi, xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish, foydalanuvchilarni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash.



✓ **1C: ЗАПЛАТА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ**- ushbu dastur ish haqini hisoblash va tashkilotning kadrlar siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Kadrlar va buxgalteriya bo'limida keng qo'llaniladi.



✓ **1C: DOCUMENT EXCHANGE** zamonaviy ECM tizimi (Enterprise Content Management), bu biznes jarayonlari va xodimlarning ish faoliyatini boshqarish uchun to'liq vositalar to'plamidir. Bu tashkilotdagi hujjatlar bilan ishlashni avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.



✓ **SBIS SYSTEM** tashkilot va kontragentlar ichidagi elektron hujjat aylanishi, Internet orqali barcha davlat organlariga hisobot berish, korporativ ijtimoiy tarmoq (yangiliklar va munozaralar, repostlar, yoqtirishlar va sharhlar), savdo nuqtalari va boshqalar kabi ko'plab imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.



✓ **GLONASS/GPS** bu avtomobil harakatini, haydovchining ishlash va dam olish rejimini, avtomobil tezligini va yoqilg'i sarfini Real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi zamonaviy vositadir. Yoqilg'i-moylash materiallarini boshqaradigan iqtisodchi uchun ideal yechim

✓ **CLIENT-BANK** bu mijoz hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishi, telefon va kompyuter orqali bank bilan ma'lumot va hujjatlarni almashishi mumkin bo'lgan qulay tizim

- Har bir talabaning qabul qilish imkoniyatidan kelib chiqib individual yondashish, topshiriqlar berish
- “Aqlii shahar” texnologiyalarini joriy etish loyihalarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan “Aqlii ta'lim” loyihasida qatnashishini ta'minlash. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:
 - shaxsni intellektual aniqlash tizimi;
 - masofaviy ta'lim va elektron o'qitish;
 - ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olgan integratsiya tizimlari;
 - onlayn va oflayn uslublaridagi integratsiya tizimlari;
 - adaptive va mobil o'qitish texnologiyalari.²

5 XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonini bevosita iqtisodiyot sohalariga bog'lash, iqtisodchi mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, sohaga oid qonun xujjatlari va qarorlar bilan tanishtirib borish.

Raqamlashtirish jarayonida bevosita talabalar ishtirokini ta'minlash, jarayonlarga jalb qilish orqali amaliy ko'nikmalarini oshirib borish, raqamlashtirishga va iqtisodiyot sohalarida qo'llaniladigan dasturiy ta'minotni o'zlashtirib olishiga sharoit yaratib berish ta'lim muassasi zimmasiga yuklatiladi.

Bu jarayonlar bevosita “Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalari va tizimlari” fanini o'qitadigan pedagog xodimlardan IT va Iqtisodiyot sohalariga oid bo'lgan yangiliklar va ixtirolardan doimiy ravishda xabardor bo'lib turishi talab qilinadi.

Maxsus dasturlardan foydalanish ko'nikmasini mustaqil ish tarzida, to'garaklar jarayonida o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Sababi, bu dasturlarni o'rgatishga fan dasturida soatlar ajratilmagan.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2019 yildagi 48-son



Dasturlarning online variantlaridan foydalanishni o'rganish talabar uchub yana bir qulaylikdir. Jumladan Google drive dasturlaridan shular jumlasidandir.

Google xizmatlaridan foydalanish iqtisod sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

1. Xodimlar haqidagi ma'lumotlarni tez va oson yig'ish. Sababi google dickda tayyorlangan xujjat ssilkasini olib barcha ijtimoiy tarmoqlar orqali xodimlarga jo'natish imkoniyati mavjud.

2. Google diskda tayyorlangan xujjatga kiritilgan ma'lumotlar avtomatik tarzda saqlanadi. Bu xodimlarga so'ralgan ma'lumotlarni jo'natishda yengillik yaratadi.

Google diskda tayyorlangan xujjatga kiritilgan ma'lumotlar bitta xujjatga tushadi. Kiritilgan ma'lumotlarni jamlash talab etilmaydi.

FOYDALANILGAR ADABIYOTLAR

[1] G'.M.Porsaev Korxonona menejmentida axborot texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2010.

[2] Информационные ресурсы и технологии в экономике: Учебное пособие / Под ред. Романова А.Н.. - М.: Вузовский учебник, 2018. - - 319 с

[3] https://e-library.namdu.uz/Iqtisodiyotda_axborot_tehnologiyalari_Axarov_B.S.pdf

[4] <https://lex.uz/docs/-5030957>

[5] <https://lex.uz/docs/-5030957#-5031952>

[6] <file:///C:/Users/User/Downloads/713.pdf>

[7] <https://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/43-y-Iqtisodda-axborot-texnologiyalari.-Oquv-qollanma.-O.T.Kenjayev-A.O.Roziyev.-T-2005.pdf>

[8] https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13278_2_115636E5C8C04CDFA888D6322BBD2E1F52734951.pdf